



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQ MALAKALARINI
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI (OG'ZAKI NUTQ AMALIYOTI VA TINGLAB
TUSHUNISH FANLARI MISOLIDA)**

Abdullayeva Dilrabo Qo'chqorali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ingliz tili bugun xalqaro muloqotning asosiy vositasiga aylangan. Shu bois bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining og'zaki nutqini puxta shakllantirish dolzarb masaladir. Yangi o'quv dasturlari joriy etilgani bilan, talabalarning erkin so'zlashish ko'nikmasi ko'pincha kutilgan darajaga yetmaydi. Maqolada "Tinglab tushunish" va "Og'zaki nutq amaliyoti" fanlarini birgalikda olib borishga asoslangan metodika ilgari suriladi; unda kommunikativ va interaktiv usullar raqamli vositalar bilan uyg'unlashtiriladi. Tajriba Namangan davlat pedagogika instituti 4-kurs talabalari — jami 60 nafar ishtirokchi bilan o'tkazildi. Eksperimental guruhda og'zaki nutq ko'nikmalari umumiy darajasi 81 foizga, nazorat guruhida esa 56 foizga yetdi. Bu farq tanlangan yondashuvning samarasini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, tinglab tushunish, kommunikativ kompetensiya, interaktiv usullar, raqamli vositalar, ingliz tili o'qituvchilari.

**МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УСТНЫХ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ДИСЦИПЛИН «ПРАКТИКА
УСТНОЙ РЕЧИ» И «АУДИРОВАНИЕ»)**

Абдуллаева Дилрабо Кучкорали кизи

Наманганский государственный педагогический институт, базовый докторант

Аннотация

Английский язык стал основным средством международного общения, поэтому устные навыки будущих учителей английского языка занимают важное место в их подготовке. Новые учебные программы уже действуют, однако студенты нередко заканчивают курс, так и не научившись свободно говорить. В статье описана методика, объединяющая две дисциплины — «Аудирование» и «Практику устной речи» — и сочетающая коммуникативные и интерактивные приёмы с цифровыми средствами. В эксперименте участвовали 60 студентов 4-го курса Наманганского государственного педагогического института. К его завершению устные навыки в экспериментальной группе достигли 81 процента против 56 процентов в контрольной. Эта разница говорит о пользе совместного преподавания двух дисциплин как единой системы.

Ключевые слова: устные навыки, аудирование, коммуникативная компетентность, интерактивные приёмы, цифровые средства, учителя английского языка.

**METHODOLOGY FOR IMPROVING THE ORAL SPEECH SKILLS OF FUTURE
ENGLISH TEACHERS (BASED ON THE COURSES "ORAL SPEECH PRACTICE" AND
"LISTENING COMPREHENSION")**

Abdullayeva Dilrabo Qo'chqorali qizi

Namangan State Pedagogical Institute, Doctoral Researcher

Abstract

English has become the main language of international communication, which makes the oral skills of future English teachers an important concern in teacher training. New curricula are in place, yet students often leave their courses without the fluency they need to speak freely. This article presents a teaching method that links two courses — "Listening Comprehension" and "Oral Speech Practice" — and brings communicative and interactive activities together with digital tools. Sixty fourth-year students at Namangan State Pedagogical Institute took part in the experiment. By the end, oral skills in the experimental group reached 81 per cent, against 56 per cent in the control group. The gap points to the value of teaching the two courses as a single, connected system.

Keywords: oral skills, listening comprehension, communicative competence, interactive methods, digital tools, English teachers.

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish har qachongidan ham ortib bormoqda. Ingliz tili bugungi kunda global muloqot vositasiga aylangani bois, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida og'zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etadi. Bugungi ta'lim dasturlari asosida dars samaradorligini oshirish sifat bosqichiga yetgan bo'lsa-da, bo'lajak o'qituvchilarning og'zaki nutq malakalarini to'laqonli shakllantirish masalasi hozirgacha o'z yechimini topmaganligi muammoning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning markaziy muammosi quyidagicha qo'yiladi: oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ yondashuv, interaktiv usullar va raqamli texnologiyalar keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, talabalarning og'zaki muloqot qobiliyati ko'pincha yetarli darajada rivojlanmay qolmoqda. Bu holat o'quv dasturlari mazmuni, pedagogik yondashuvlar va amaliy faoliyatni tizimlashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi "Tinglab tushunish" va "Og'zaki nutq amaliyoti" fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitishga asoslangan, kommunikativ va interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalarni birlashtiruvchi metodik tizimning ishlab chiqilishi va uning samaradorligi eksperimental tarzda asoslanganligidadir. Maqolaning maqsadi — ingliz tili yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarini tahlil qilish, og'zaki nutq malakasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ularning amaliy natijalarini yoritishdan iborat.

Chet tillarini o'qitish metodikasi, ayniqsa og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda ko'plab olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'rganish jarayonida tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni integratsiyalashgan holda rivojlantirish kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Og'zaki nutq malakasini baholashning nazariy asoslari de Jong tomonidan tahlil qilingan bo'lib, unda ikkinchi til bo'yicha gapirish kompetensiyasini obyektiv o'lchashning murakkab jihatlari ochib berilgan [1]. Kommunikativ yondashuvning oliy ta'limdagi samaradorligi bir qator zamonaviy tadqiqotlarda tasdiqlangan. Xususan, Cedillo va Guaman kommunikativ yo'naltirilgan ta'lim talabalarga til amaliyotining mazmunli imkoniyatlarini yaratib, oliy ta'lim sharoitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishini ko'rsatib bergan [2]. Vazifaga asoslangan til o'qitish (TBLT) bo'yicha 64 ta tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharhda esa ushbu yondashuv haqiqiy hayotiy muloqot vazifalariga e'tibor qaratish orqali ravonlik, aniqlik va o'ziga ishonchni samarali oshirishi aniqlangan [3].

Interaktiv metodlar, ayniqsa, rolli o'yinlar samaradorligi keng o'rganilgan. Nguyen Vyetnam sharoitida o'tkazgan tadqiqotda rolli o'yinlar talabalarning ishtirokini oshirib, gapirishdagi xavotirni kamaytirishi va spontan muloqotni rag'batlantirishini tasdiqlagan [4]. Shunga o'xshash natijalarni Awad ham qayd etgan bo'lib, eksperimental guruhda rolli o'yin metodi qo'llanilganda gapirish ko'rsatkichlari statistik jihatdan ahamiyatli darajada yaxshilangan [5]. Ebadi va Azizimajd raqamli platformalardagi rolli o'yinlar talabalarning og'zaki ravonligi va muloqotga tayyorligini oshirishini ko'rsatib, interaktiv usullarni raqamli muhit bilan birlashtirish istiqbolini ta'kidlagan [6].


Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning tinglab tushunishni rivojlantirishdagi o'rni so'nggi yillarda alohida e'tibor qozongan. Al-Aufi va hammualliflar TED Talks, raqamli posterlar va qisqa filmlar kabi guruhlangan raqamli materiallar EFL talabalarining og'zaki kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishini aniqlagan [7]. Hazaymeh va hammualliflar olti oylik tajriba asosida sun'iy intellektga asoslangan ilovalar tinglab tushunishni real hayotiy vaziyatlarda rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatgan [8]. Liu va hammualliflar esa sun'iy intellektli chatbotlar nutqiy o'zaro ta'sirni faollashtirib, tinglab tushunish kompetensiyasini oshirishi va chet tilidagi xavotirni kamaytirishini qayd etganlar [9]. Eshankulov o'tkazgan kvazi-eksperimental tadqiqotda esa raqamli vositalar izchil metodik tizimga joylashtirilganda tinglash ko'rsatkichlari va o'quvchi avtonomligi ahamiyatli darajada o'sishi isbotlangan [10].

Mahalliy tadqiqotchilardan Mirzakamolova kommunikativ til o'qitish yondashuvi talabalarda erkin muloqot, fikrni mustaqil ifodalash va interaktiv muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi [11]. Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ va interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalarning ayrim jihatlari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, "Tinglab tushunish" va "Og'zaki nutq amaliyoti" fanlarini yagona integratsiyalashgan metodik tizim sifatida birlashtirish va uni raqamli texnologiyalar bilan boyitib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari tayyorgarligiga moslashtirish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini nazariy va amaliy


metodologiyalar orqali, integratsiyalashgan yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot dizayni nazorat va eksperimental guruhlarini qiyoslashga asoslangan pedagogik eksperiment shaklida tashkil etildi. Tadqiqot Namangan davlat pedagogika instituti 4-kurs talabalari ishtirokida o'tkazildi. Tanlanma jami 60 nafar talabadan iborat bo'lib, ular XTA CU va XTA SU guruhlaridan tashkil topgan hamda eksperimental va nazorat guruhlariga ajratilgan. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Diagnostik bosqichda talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarining dastlabki darajasi baholandi hamda tinglab tushunish va so'zlashishdagi qiyinchiliklar aniqlandi. Eksperimental bosqichda eksperimental guruhda "Listening Comprehension" va "Oral Speech Practice" fanlari doirasida kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalar qo'llanildi; nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish metodlari davom ettirildi. Tahlil bosqichida olingan natijalar tahlil qilinib, ikki guruh o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Tadqiqotda pedagogik kuzatish (dars jarayonida talabalar faoliyatini baholash), test va diagnostik vazifalar (og'zaki nutq malakasi va tinglab tushunish darajasini o'lchash), taqqoslash metodi (eksperimental va nazorat guruhlarini natijalarini solishtirish) hamda statistik tahlil (natijalarni foiz ko'rinishida hisoblash) metodlaridan foydalanildi. "Listening Comprehension" kursida darslar haqiqiy audio materiallar, muloqotlar va multimedia resurslari asosida; "Oral Speech Practice" kursida esa rolli o'yinlar, debatlar, taqdimotlar va guruhli muhokamalar kabi interaktiv metodlar asosida tashkil etildi.

Eksperiment natijalari eksperimental guruh talabalarining og'zaki ko'nikmalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatdi. Eksperimental guruh talabalari o'z fikrlarini erkin ifodalash, bemalol muloqot qilish va turli kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etish ko'nikmalarini egalladilar; nazorat guruhi talabalari esa an'anaviy metodlar tufayli faqat qisman natijaga erishdilar (1-rasm).



1-rasm. Eksperimental va nazorat guruhlarida og'zaki nutq ko'nikmalari natijalari (foizlarda)

Eksperimental guruhda rolli o'yinlar, debatlar, guruh muhokamalari va taqdimotlar kabi interaktiv usullar talabalarining darsga bo'lgan qiziqishini oshirdi, mustaqil fikrlash, samarali muloqot qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirdi. Audio-vizual vositalar, raqamli platformalar va interaktiv dasturlar tinglab tushunish va og'zaki so'zlashni yanada oson hamda qiziqarli qildi, talabalarni mustaqil o'rganishga undadi (2-rasm).



2-rasm. Dars jarayonidagi faollik va metod samarasi

Olingan natijalar kommunikativ va interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining og'zaki mahoratini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Eksperimental guruh ko'rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan barqaror ustunligi (umumiy kompetensiya bo'yicha 81% va 56%) integratsiyalashgan yondashuvning ustuvorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari oldingi ilmiy izlanishlar bilan uyg'undir. Xususan, gapirish ko'nikmalarining sezilarli o'sishi vazifaga va kommunikativ faoliyatga asoslangan o'qitishning samaradorligini ko'rsatgan tadqiqotlar bilan mos keladi [2, 3], interaktiv roli o'yinlarning ijobiy ta'siri esa Nguyen va Awad xulosalarini quvvatlaydi [4, 5]. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektga asoslangan vositalarning tinglab tushunishni rivojlantirishdagi ahamiyati Hazaymeh va hammualliflar hamda Eshankulov tomonidan olingan natijalar bilan ham tasdiqlanadi [8, 10]. Tadqiqotning ayrim cheklavlarini ham e'tirof etish lozim. Tanlanma 60 nafar talaba va bitta oliy ta'lim muassasasi bilan cheklangan bo'lib, bu natijalarni umimlashtirish imkoniyatini chegaralaydi. Bundan tashqari, eksperiment qisqa muddatda o'tkazilgani bois ko'nikmalarining uzoq muddatli barqarorligi alohida o'rganishni talab etadi. Amaliy jihatdan, tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida "Tinglab tushunish" va "Og'zaki nutq amaliyoti" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda raqamli ta'lim resurslarini dars jarayoniga tizimli integratsiya qilishda foydalanilishi mumkin.

Tajriba natijalari kommunikativ va interaktiv metodlar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining og'zaki nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Eksperimental guruh talabalari o'z fikrlarini erkin ifodalash, ochiq muloqot qilish va turli kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etish qobiliyatini egalladilar. Rolli o'yinlar, debatlar, guruh muhokamalari va taqdimotlar kabi interaktiv usullar talabalar ishtirokini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Audio-vizual vositalar va raqamli platformalar esa tinglab tushunish va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga talabalarning mustaqil o'rganishga qiziqishini ham oshiradi. Ilmiy nuqtai nazardan, "Tinglab tushunish" va "Og'zaki nutq amaliyoti" fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitishga asoslangan metodik tizim talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi isbotlandi. Amaliy jihatdan o'quv dasturlarini ushbu yondashuv asosida qayta ishlash va raqamli resurslardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda tanlanmani kengaytirish, turli oliy ta'lim muassasalarini qamrab olish hamda metodik tizimning uzoq muddatli samaradorligini baholash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. De Jong N. H. Assessing Second Language Speaking Proficiency // Annual Review of Linguistics. 2023. Vol. 9. P. 541–560.

2. Cedillo Llivisaca M. A., Guamán Luna M. M. Enhancing EFL Learners' Speaking Skills Through Communicative Language Teaching in Higher Education // Neliti Repository. 2026.
3. Almahasees Z., Qassem M. The Effectiveness of Task-Based Language Teaching in Improving Communication Skills: A Systematic Review // International Journal of Advanced and Applied Sciences. 2025. Vol. 12. No. 1. P. 230–243.
4. Nguyen V. T. Using Role Play to Enhance Speaking Skills Among Secondary School Students // International Journal of Scientific and Research Publications. 2025. Vol. 15. No. 6. P. 162–171.
5. Awad A. The Impact of Role-Playing on EFL Speaking Proficiency in a Secondary School Context. HAL Open Science. 2024.
6. Ebadi S., Azizimajd H. Exploring the Impact of Role-Playing in Clubhouse on the Oral Fluency and Willingness to Communicate of EFL Learners // Education and Information Technologies. 2023. Vol. 28. P. 1–42.
7. Al-Aufi A., Al-Mahrooqi R., Denman C. Enhancing EFL Learners' Engagement in Situational Language Skills Through Clustered Digital Materials // Frontiers in Education. 2024. Vol. 9. Article 1439104.
8. Hazaymeh W. A., Alshaikhi T., Abdul Wahab M. O., Khasawneh M. A. Evaluating AI Applications for Enhancing Listening Comprehension Among EFL Students in Real-World Scenarios // World Journal of English Language. 2025. Vol. 15. No. 6. P. 209–220.
9. Liu Y., Huang X., Wang L. Integrating AI Chatbots in Informal Digital English Learning: Impacts on Listening Competencies in Chinese Higher Education // Education and Information Technologies. 2025.
10. Eshankulov B. Technology-Assisted, Strategy-Based Listening Instruction for Adult ESL Learners: A Quasi-Experimental Study. Zenodo. 2025.
11. Mirzakamolova M. Kommunikativ til o'qitish yondashuvi orqali talabalarning nutq faoliyatini rivojlantirish // O'zbekiston ta'lim ilmlari jurnali. 2025. Vol. 5. No. 2. B. 34–47.